



**TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI**

**Davlat tilida tinglab tushunish,
gapirish, o'qish va yozish
kompetensiyalarini rivojlantirish
metodikasi**



Mavzuning dolzarbligi

Davlat tilini o'qitishning yakuniy maqsadi — o'quvchida grammatik qoidalarni yodlash emas, balki real hayotiy vaziyatlarda erkin va samarali muloqot qila olish qobiliyatini shakllantirishdir. Bu qobiliyat “amaliy nutq kompetensiyasi” tushunchasi orqali ifodalanadi va to'rtta asosiy nutqiy faoliyat turini — tinglab tushunish, gapirish (dialogik va monologik), o'qish va yozishni — o'z ichiga oladi.



Maqsad

O'qituvchilarda davlat tilida o'quvchilarning tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish metodikasiga oid zamonaviy bilimlarni shakllantirish hamda CEFR mezonlari asosida nutqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Nazariy asoslar

to'rt kompetensiya
va CEFR

Amaliy vositalar

nutqiy keys va
muloqot mashqlari

Baholash tizimi

diagnostik,
formativ, summativ

To'rt nutqiy kompetensiya va CEFR



Kompetensiyaviy yondashuv

Bilim, ko'nikma va malakalarni real hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llash qobiliyatini shakllantirish.



Tinglab tushunish

Og'zaki nutqni eshitish, asosiy axborotni anglash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyati.



Gapirish

Fikrni og'zaki, mantiqiy va ravon ifodalash — dialogik va monologik nutq shaklida.



O'qish

Yozma matnni ongli idrok etish, undagi axborotni ajratish va tahlil qilish.



Yozish

Kundalik va kasbiy hayotda zarur bo'ladigan yozma matnlarni mustaqil yaratish.



CEFR

Til egallash darajasini olti bosqichga (A1–C2) ajratuvchi xalqaro baholash mezonlari tizimi.

Tinglab tushunish mashqlarining bosqichlari



1

2

3

4

Pre-listening

Rasm, video yoki kalit soʻzlar yordamida oʻquvchini tinglanadigan matnga tayyorlash.

While-listening

Birinchi tinglashda umumiy mazmun, ikkinchi tinglashda tafsilotlar aniqlanadi.

Post-listening

Savollarga javob berish, matnni qayta hikoya qilish, yozma topshiriqlar bajarish.

Natija

Tinglab tushunish gapirish, oʻqish va yozish uchun mustahkam asos yaratadi.

Gapirish kompetensiyasi: dialogik va monologik nutq

DIALOGIK NUTQ

Ikki yoki undan ortiq shaxs o'rtasidagi muloqot: fikr almashish, savol berish, javob qaytarish, suhbatni davom ettirish va yakunlash. Kundalik hayotdagi deyarli barcha muloqotlar dialogik shaklda amalga oshadi.

MONOLOGIK NUTQ: topshiriq turlari

- Rasm yoki suratni tasvirlash
- Voqeani hikoya qilish
- O'qilgan matnni qayta bayon etish
- Taqdimot qilish
- Loyiha himoyasi
- "Bir daqiqalik nutq"

O'qish kompetensiyasining turlari

1

Tanishuv o'qishi

Matnning umumiy mazmunini tushunish.

2

Tanlab o'qish

Kerakli ma'lumotni izlab topish.

3

O'rganib o'qish

Matnni chuqur tahlil qilish.

4

Tezkor o'qish

Skimming va scanning — asosiy g'oya yoki muayyan faktlarni aniqlash.

Funksional yozish turlari



Ariza

Masalan: kutubxonaga a'zolik uchun ariza yozish.



Elektron xat

Masalan: do'stingizga elektron xat yozish.



Tabriknoma

Bayram yoki voqea munosabati bilan yoziladigan tabrik matni.



E'lon

Jamoatchilikka muhim ma'lumotni yetkazish uchun qisqa matn.



Anketa

So'rov shaklida ma'lumot to'plash uchun varaq.



Rezyume

Shaxsning ta'limi va tajribasini aks ettiruvchi hujjat.

CEFR nutqiy ko'nikma deskriptorlari



1

2

3

4

A1 daraja

O'zi va oilasi haqida sodda gapiradi, qisqa dialogda ishtirok etadi, oddiy matnlarni o'qiydi va qisqa xabar yozadi.

A2 daraja

Kundalik hayotga oid mavzularda suhbatni davom ettiradi, oddiy voqealarni bayon qiladi, elektron xat yozadi.

B1 daraja

O'z fikrini asoslab bera oladi, matn mazmunini tahlil qiladi, turli janrdagi yozma matnlarni mustaqil yaratadi.

Amaliy ahamiyati

O'qituvchiga dars maqsadini aniq belgilash, topshiriqlarni til darajasiga mos tanlash va baholash mezonlarini ishlab chiqishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy metod va texnologiyalar

1

Storytelling

Hikoya yaratish va hikoya qilish orqali lugʻat boyligi, mantiqiy fikrlash hamda monologik nutqni rivojlantiradi.

2

Role Play

Turli ijtimoiy rollarni bajarish orqali tabiiy muloqot; dialogik nutqni rivojlantirishda ayniqsa samarali.

3

Case Study

Real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va muammoga yechim topish; tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

4

Project Based Learning

Mustaqil izlanish, axborot toʻplash, guruhda ishlash va yakuniy mahsulot yaratishga oʻrgatadi.

Nutqiy keys (Case Study) tarkibiy qismlari



Nutqiy keys nima?

Muayyan kommunikativ vaziyat asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar majmui.



Vaziyat tavsifi

O'quvchi hal qilishi kerak bo'lgan kommunikativ vaziyatning tasviri.



Muammo yoki topshiriq

O'quvchi hal etishi lozim bo'lgan aniq vazifa.



Bajarilishi lozim vazifalar

Vaziyatni hal etish uchun bosqichma-bosqich bajariladigan ish qadamlari.



Yakuniy natija

Dialog, taqdimot yoki yozma matn ko'rinishida taqdim etiladi.



Baholash mezonlari

Muloqotning samaradorligi, muammoni hal eta olish, fikrning mantiqiyliigi va ijodiy yondashuv.

Amaliy muloqot mashqlarini tashkil etish

1

Rolli o'yin (Role Play)

Xaridor-sotuvchi, shifokor-bemor, kutubxonachi-o'quvchi kabi rollar orqali tabiiy dialog.

2

Juftlik va guruhli ishlash

O'quvchilar muammolarni muhokama qiladi, savol-javoblar tashkil etadi va umumiy xulosaga keladi.

3

Axborot almashish (Information Gap)

Ikki o'quvchiga turli ma'lumot beriladi; ular savol berish orqali yetishmayotgan axborotni aniqlaydi.

4

Intervyu va debatlar

Jurnalist va suhbatdosh rolini bajarib, savol tayyorlash yoki mavzu yuzasidan bahs olib borish.

Namunaviy nutqiy keys: “Kutubxonaga a’zo bo’lish”

Maqsad: yangi maktabga kelgan o’quvchi rolda kutubxonachi bilan real muloqotni davlat tilida amalga oshirish.

Jihozlar: rol kartochkalari (o’quvchi, kutubxonachi)

Kitob olish tartibi

Adabiyot tanlash

Qaytarish muddati

Muloqot etiketi

Dialogik nutq

Bajarilish tartibi

- O’quvchi “yangi kelgan o’quvchi” rolini oladi
- Kitob olish tartibini so’raydi va kerakli adabiyotni tanlaydi
- Muloqot etiketi qoidalariga amal qiladi
- Kutubxonachiga murojaat qiladi
- Kitobni qaytarish muddati haqida ma’lumot oladi
- Natija: dialogik nutq va real vaziyatda muloqot qilish ko’nikmasi rivojlanadi

Namunaviy kompetensiyaviy topshiriq

Topshiriq: “Mahallangizni obodonlashtirish bo'yicha taklif tayyorlang”.

Bajarilish tartibi

O'quvchilar muammoni tahlil qiladilar

Guruhda fikr almashadilar

O'z takliflarini og'zaki taqdim etadilar

Yakunda maktab ma'muriyatiga yozma murojaat tayyorlaydilar



Baholash turlari

1

Diagnostic baholash

Ta'lim jarayoni boshida o'quvchilarning boshlang'ich bilim va ko'nikmalarini aniqlash.

2

Formativ baholash

Dars davomida muntazam o'tkaziladi; o'quvchining rivojlanishini kuzatishga xizmat qiladi.

3

Summativ baholash

Muayyan mavzu yoki bo'lim yakunida o'quvchining yakuniy natijasini aniqlaydi.

4

CEFR asosidagi baholash

Tinglash, gapirish, o'qish va yozish kompetensiyalarini alohida mezonlar asosida baholaydi.

Yakuniy xulosa

Nutqiy keyslar, amaliy muloqot mashqlari, kompetensiyaviy topshiriqlar va CEFR darajalariga mos materiallar — bir-birini to'ldiruvchi amaliy vositalar tizimi bo'lib, ularning barchasi bitta umumiy tamoyilga xizmat qiladi: tilni mavhum bilim sifatida emas, real vazifani bajarish vositasi sifatida o'rgatish. Har bir o'qituvchiga taqdim etilgan shablon va namunalar asosida o'z sinfi uchun original nutqiy keyslar, mashqlar va materiallar to'plamini yaratib borish hamda ularni tizimli metodik zaxiraga aylantirish tavsiya etiladi.



1-KEYS. TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASI



VAZIYAT

O'qituvchi o'quvchilarga davlat tilidagi **3 daqiqalik** audio matnni **ikki marta** eshittirdi.



Matnda O'zbekistonning tarixiy obidalari haqida ma'lumot berilgan.

Audio matn **2 marta** eshittirildi



TINGLAB BO'LGACH...



NATİJA: ASOSIY MAZMUN TUSHUNİLDI



- ✓ O'quvchilarning aksariyati matnning asosiy g'oyasini tushundi.
- ✓ O'zbekistonning tarixiy obidalari haqida umumiy ma'lumotga ega bo'ldilar.



QIYINCHILIKLAR KUZATİLDI



- Aniq sanalar esda qolmadi.
- Joy nomlarini eslab qolishda qiyinchilik bo'ldi.
- Ayrim muhim faktlar yodda qolmadi.



ANIQ SANALAR



JOY NOMLARI



MUHİM FAKTLAR

2-KEYS.

GAPIRISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH



VAZIYAT

Sinfdagi o'quvchilar matnni yaxshi o'qiydi va grammatik qoidalarni biladi.

Ammo davlat tilida erkin gapirishga kelganda:

- ✗ qisqa javob beradi
- ✗ fikrini to'liq bayon qila olmaydi
- ✗ xato qilishdan qo'rqadi



MUAMMO

O'quvchilarda **passiv lug'at** boyligi **faol nutqqa** aylanmagan.

Shuningdek, nutqiy muhit va amaliy mashqlar yetarli emas.



SAVOLLAR

1

O'quvchilar nima uchun gapirishda qiynalmoqda?



2

Xato qilish qo'rquvini qanday kamaytirish mumkin?



3

Gapirish kompetensiyasini rivojlantirish uchun qanday interaktiv metodlardan foydalanish mumkin?



YECHIM

O'qituvchi grammatik qoidalarga asoslangan savol-javob bilan cheklanmasligi kerak.

O'quvchilarni **real nutqiy vaziyatlarga** jalb etish zarur.



GAPIRISHNI RIVOJLANTIRISH UCHUN INTERAKTIV METODLAR

ROLLI O'YIN



Real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish

JUFTLIKDA ISHLASH



Fikr almashish, bir-birini tinglash

GURUH MUHOKAMASI



Mavzu bo'yicha erkin fikr bildirish

DEBAT



O'z fikrini asoslab himoya qilish

"SPEAKING CHALLENGE"



Qiziqarli topshiriqlar orqali nutqiy mashq



MAQSAD: O'QUVCHILAR ERKIN, ISHONCH BILAN VA TO'LIQ FIKR BAYON QILA OLISHI!





3-KEYS. O'QISH KOMPETENSIYASI

Matnni o'qish – ma'lumotdan ma'no chiqarish san'atidir!



VAZIYAT

O'quvchilarga davlat tilidagi ilmiy-ommabop matn berildi. Ular matndagi deyarli barcha so'zlarni tushunsa ham, matnning asosiy g'oyasini aniqlashda va muallifning fikrini tushinishda qiyinchilikka duch kelishdi.



MUAMMO

O'quvchilarda o'qish strategiyalaridan foydalanish ko'nikmasi yetarli shakllanmagan.



SAVOLLAR



- 1 Har bir so'zni tarjima qilish to'g'ri usulmi?
- 2 Matnning asosiy g'oyasini aniqlash qanday o'rgatiladi?
- 3 O'qishning qanday turlaridan foydalanish mumkin?



YECHIM

Matn bilan ishlash uch bosqichda tashkil qilinadi

1

O'qishdan oldin



Matnga tayyorgarlik ko'rish

- ✓ Sarlavha asosida matn mazmunini taxmin qilish.
- ✓ Kalit so'zlarni aniqlash.
- ✓ Mavzu yuzasidan o'z fikrini aytish.



2

O'qish jarayonida

Matnni anglab o'qish

- ✓ Asosiy fikrni aniqlash.
- ✓ Muhim ma'lumotlarni belgilash.
- ✓ Notanish so'zlarning ma'nosini kontekstdan topish.



3

O'qishdan keyin

Matn ustida mulohaza yuritish

- ✓ Matnga reja tuzish.
- ✓ Savollarga javob berish.
- ✓ Matn mazmunini qayta hikoya qilish.
- ✓ Muallif fikriga munosabat bildirish.



O'qishning turlari



Tanlab o'qish
(skimming) – umumiy g'oyani aniqlash uchun



Diqqat bilan o'qish
(scanning) – aniq ma'lumotni topish uchun



Chuqur o'qish
(intensive reading) – muhim fikrni tushunish uchun



Mustaqil o'qish
(extensive reading) – lug'at va tafakkurni kengaytirish uchun



Anglab o'qilgan har bir matn – keng dunyoqarash va mustahkam bilim kalitidir!



3-KEYS.

O'QISH KOMPETENSIYASI



VAZIYAT

O'quvchilarga davlat tilidagi ilmiy-ommabop matn berildi. Ular matndagi deyarli barcha so'zlarni tushunsa ham, matnning asosiy g'oyasini aniqlashda va muallifning fikrini tushunishda qiyinchilikka duch kelishdi.



SAVOLLAR

- 1 Har bir so'zni tarjima qilish to'g'ri usulmi?



- 2 Matnning asosiy g'oyasini aniqlash qanday o'rgatiladi?




- 3 O'qishning qanday turlaridan foydalanish mumkin?



MUAMMO

O'quvchilarda o'qish strategiyalaridan foydalanish ko'nikmasi yetarli shakllanmagan.



Yaxshi o'qish – to'g'ri strategiya bilan boshlanadi!



STRATEGIYA BILAN O'QIGAN O'QUVCHI – MATNNI TUSHUNADI, FIKRLAYDI VA O'Z FIKRINI ERKIN BAYON QILA OLADI!



YECHIM

MATN BILAN ISHLASH UCH BOSQICHDA TASHKIL QILINADI:

1. O'QISHDAN OLDIN



Sarlavha asosida matn mazmunini taxmin qilish.



Kalit so'zlarni aniqlash.



Mavzu yuzasidan o'z fikrini aytish.

Man bashorat qilishimcha, bu matnda ... haqida so'z boradi.

2. O'QISH JARAYONIDA



Asosiy fikrni aniqlash.



Muhim ma'lumotlarni belgilash.



Notanish so'zlarning ma'nosini kontekstdan topish.

Matnning asosiy g'oyasi shuki, ...

3. O'QISHDAN KEYIN



Matnga reja tuzish.



Savollarga javob berish.



Matn mazmunini qayta hikoya qilish.



Muallif fikriga munosabat bildirish.

Menimcha, muallif haq, chunki ...





4-KEYS. YOZISH KOMPETENSIYASI



Yaxshi fikr — to'g'ri yozuvda!




VAZIYAT

O'quvchilarga "Ona tilining jamiyatdagi o'rni" mavzusida matn yozish topshirildi. Ko'pchilik o'quvchilar yaxshi fikrlarga ega edi, ammo ularning yozma ishlari tartibsiz, fikrlar o'zaro bog'lanmagan va imlo xatolari ko'p edi.



MUAMMO

O'quvchilarda yozma nutqni rejalashtirish, fikrlarni mantiqiy bog'lash va tahrir qilish ko'nikmalari yetarli emas.



SAVOLLAR

- 1 Yozish jarayoni qaysi bosqichlarda tashkil qilinishi kerak?
- 2 O'quvchi yozgan matnini o'zi qanday tekshirishi mumkin?
- 3 O'qituvchi xatolarni qanday tahlil qilishi kerak?

"Yaxshi yozuv" — aniq fikr, to'g'ri til, mehrli uslub!"



YECHIM



YOZISH JARAYONI UCH BOSQICHDA TASHKIL ETILADI:



1

BOSQICH — REJALASHTIRISH



- ✓ Mavzuni tushunish.
- ✓ Asosiy g'oyalarni yozib chiqish.
- ✓ Reja tuzish.

Reja:

1. ...
2. ...
3. ...



2

BOSQICH — MATN YARATISH



- ✓ Kirish.
- ✓ Asosiy qism.
- ✓ Xulosa.



3

TAHRIRLASH



O'quvchi quyidagilarni tekshiradi:

- ✓ fikrlar mantiqiy bog'langanmi;
- ✓ mavzu to'liq yoritilganmi;
- ✓ imlo va tinish belgilarida xatolar bormi;
- ✓ so'zlar o'rinli ishlatilganmi.



Reja bilan yoz, mantiq bilan bog'la, tahrir bilan mukammallashtir!



4-KEYS. YOZISH KOMPETENSIYASI



VAZIYAT

O'quvchilarga "Ona tilining jamiyatdagi o'rni" mavzusida matn yozish topshirildi.

Ko'pchilik o'quvchilar yaxshi fikrlarga ega edi, ammo ularning yozma ishlari tartibsiz, fikrlar o'zaro bog'lanmagan va imlo xatolari ko'p edi.



MUAMMO

O'quvchilarda yozma nutqni rejalashtirish, fikrlarni mantiqiy bog'lash va tahrir qilish ko'nikmalari yetarli emas.



O'QUVCHI O'ZI TEKSHIRISHI UCHUN TEKSHIRUV RO'YXATI



- ✓ Matn mavzuga mos keladimi?
- ✓ Reja bo'yicha yozildimi?
- ✓ Fikrlar mantiqiy bog'langanmi?
- ✓ Kirish, asosiy qism, xulosa bormi?
- ✓ Imlo qoidalariga rioya qilinganmi?
- ✓ Tinish belgilari to'g'ri qo'llanganmi?
- ✓ So'zlar o'rinli va xilma-xil ishlatilganmi?
- ✓ Matn o'qishga tushunarli va ravonmi?



SAVOLLAR

1 Yozish jarayoni qaysi bosqichlarda tashkil qilinishi kerak?



2 O'quvchi yozgan matnini o'zi qanday tekshirishi mumkin?



3 O'qituvchi xatolarni qanday tahlil qilishi kerak?



YECHIM

1 1-BOSQICH REJALASHTIRISH



Mavzuni tushunish.



Asosiy g'oyalarni yozib chiqish.



Reja tuzish.



2 2-BOSQICH MATN YARATISH



KIRISH

Mavzuga kirish, asosiy g'oyani bayon qilish.



ASOSIY QISM

Fikrlarni dalillar bilan asoslash, misollar keltirish.



XULOSA

Xulosa chiqarish, umumlashtirish, mulohaza bildirish.

3 3-BOSQICH TAHRIRLASH

O'quvchi quyidagilarni tekshiradi:

- ✓ fikrlar mantiqiy bog'langanmi;
- ✓ mavzu to'liq yoritilganmi;
- ✓ imlo va tinish belgilarida xatolar bormi;
- ✓ so'zlar o'rinli ishlatilganmi.



O'QITUVCHI XATOLARNI TAHLIL QILISHI KERAK



Xatolar turiga ajratadi (imlo, grammatik, tinish belgisi, leksik, uslubiy).



Xatolarning sababini aniqlaydi (qoida bilmaslik, e'tiborsizlik, o'ransiz qo'llash va h.k.).



Takroriy xatolarga e'tibor beradi va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi.



Maqsad:
xatoni topish emas,
uni tushunish va
to'g'rilashga
o'rgatish!



YAXSHI YOZISH – O'YLAB YOZISH, TARTIB BILAN YOZISH VA TAKOMILLASHTIRIB YOZISHDAN BOSHLANADI!



6-KEYS.

NUTQIY VAZIYATDAN FOYDALANISH



VAZIYAT

O'qituvchi "Transport" mavzusini o'rgatmoqda. An'anaviy usulda transport vositalari nomlari va grammatik qoidalar tushuntirilmoqda. O'quvchilar so'zlarni yodlaydi, ammo haqiqiy hayotiy vaziyatda ulardan foydalana olmaydi.



MUAMMO

Til birliklari kommunikativ vaziyatdan ajratilgan holda o'rgatilmoqda.



VAZIFA

Mavzuni kommunikativ yondashuv asosida tashkil eting.

NAMUNAVIY YECHIM

VAZIYAT:

O'quvchi Toshkent shahriga kelgan va kerakli manzilga qanday borishni bilmaydi.



O'QUVCHILAR:

- ✓ Yo'l so'raydi.
- ✓ Yo'nalishni tushuntiradi.
- ✓ Xarita asosida manzilni topadi.
- ✓ Suhbat tuzadi.
- ✓ Oxirida "Mening eng qulay transport vositam" mavzusida qisqa matn yozadi.

Chorsu bozoriga qanday boraman?

Avtobus bilan borishingiz mumkin.



DARS JARAYONI: KOMMUNIKATIV FAOLIYATLAR



TINGLASH

Suhbatni eshitish.




Vazifa: Suhbatni tinglang va asosiy ma'lumotlarni belgilang.



GAPIRISH

Yo'lni tushuntirish.



To'g'ri boring, chorra'da chapga buriling. Keyin metro bekatidan tushib, 5 daqiqa piyoda yuring.

Vazifa: Juft bo'lib, yo'l so'rash va tushuntirish bo'yicha suhbat tuzing.

3

O'QISH

Xarita va ko'rsatmalarni o'qish.



Vazifa: Xarita va ko'rsatmalar asosida manzilni toping va yo'nalishni belgilang.



4

YOZISH

Qisqa matn yaratish.



Vazifa: "Mening eng qulay transport vositam" mavzusida 6-8 gap yozing.



NATIJA

Bitta dars davomida to'rtta kompetensiya birgalikda rivojlantiriladi:



TINGLASH
– suhbatni eshitish



GAPIRISH
– yo'lni tushuntirish



O'QISH
– xarita va ko'rsatmalarni o'qish



YOZISH
– qisqa matn yaratish

XULOSA

Nutqiy vaziyatdan foydalanish o'quvchini real hayotga tayyorlaydi va tilni amalda qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi.



7-KEYS.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH



VAZIYAT

O'quvchilar davlat tili darslariga qiziqish bildirmayapti. An'anaviy dars shakllari ularning faolligini kamaytirmoqda.



MUAMMO

Ta'lim jarayonida zamonaviy va interaktiv vositalardan yetarlicha foydalanilmayapti.



VAZIFA

Raqamli texnologiyalar yordamida to'rtta nutqiy kompetensiyani rivojlantirish yo'lini ishlab chiqing.

RAQAMLI VOSITALAR MISOLLARI



YouTube



Podcast



Quizizz



Kahoot!



Google Docs



Padlet



Canva



Google Forms



TINGLAB TUSHUNISH

Audio, podkast va videolardan foydalanish.

- ✓ Qisqa videoni tomosha qilish va savollarga javob berish.
- ✓ Podkastni eshitib, asosiy ma'lumotlarni yozib olish.
- ✓ Interaktiv topshiriqlar (LearningApps, Edpuzzle) orqali tushunishni tekshirish.



Vositalar: YouTube, Edpuzzle, LearningApps.org



O'QISH

Elektron matnlar bilan ishlash va kalit ma'lumotlarni topish.

- ✓ Elektron maqola yoki blogpostni o'qish.
- ✓ Kalit so'zlar va asosiy fikrni aniqlash.
- ✓ Onlayn test va viktorinalarni bajarish (Quizizz, Google Forms).



Kalit ma'lumotlar:

- ✓ Qadriyatlar
- ✓ Oila
- ✓ Mehnatsevarlik
- ✓ O'zaro hurmat

Vositalar: Google Docs (Reading mode), Quizizz, Google Forms



KUTILADIGAN NATIJA



- ✓ O'quvchilar mustaqil ishlashga o'rganadi.
- ✓ Tilni turli formatlarda qo'llaydi.
- ✓ Kommunikativ kompetensiyasi rivojlanadi.
- ✓ Raqamli va nutqiy kompetensiyalarni birgalikda egallaydi.



UMUMIY XULOSA

Mazkur mavzuda asosiy metodik tamoyil — to'rtta nutqiy kompetensiyani alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda rivojlantirishdir.



tinglaydi



tahlil qiladi



o'qiydi



muhokama qiladi



yozma shaklda ifodalaydi





E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!